

UDK 597.42+591.9

FARG'ONA VODIYSIDIGI AYRIM DARYO VA SOYLARNING IXTOFAUNASI TAXLILI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11247621>**Soyibjonov Axmadillo Toxirjon o'g'li***Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti „Chorvachilik va veterinariya meditsinasi“ kafedrasida assistenti*

Аннотация: *Ushbu maqolamiz orqali hozirgi kungacha yig'ilgan malumotlardan foydalanib Farg'ona vodiysidigi ayrim daryo va soylarning ixtiofaunasining taxlilini keltirmoqdamiz. Hozirgi kunda Qora daryoda 29 ta, Norin daryosida 24 ta, Shaxrixon soyda 8 ta baliq turi qayt etilgan.*

Kalit so'zlar: Norin daryosi, Qoradaryo, Shaxrixon soy, Sirdaryo, Farg'ona vodiysi

Abstract: *In this article, we present an analysis of the ichthyofauna of some rivers and streams in the Fergana Valley, using the data collected so far. Currently, 29 species of fish have been recovered in the Black River, 24 in the Norin River, and 8 in the Shahrikhan Stream.*

Key words: *Norin River, Kara Darya, Shakhrikhan Stream, Syrdarya, Fergana Valley*

Аннотация: *В данной статье мы представляем анализ ихтиофауны некоторых рек и ручьев Ферганской долины, используя собранные к настоящему времени данные. В настоящее время в реке Черной обнаружено 29 видов рыб, в реке Норин – 24, в ручье Шахрихан – 8.*

Ключевые слова: *река Норин, Карадарья, ручей Шахрихан, Сырдарья, Ферганская долина.*

KIRISH

Farg'ona vodiysi atrofi tog'lar bilan o'ralganligi bois u yerda 6000 dan ziyod katta va kichik daryolar mavjud, shulardan 16 tasining uzunligi 100 km dan 200 km gacha yetadi (Boltaboyev, 1971). Eng yirik daryolari Norin va Qoradaryo. Bu daryolar o'zaro qo'shilib Sirdaryoni hosil qiladi. Sirdaryoning yuqori oqimida yashovchi baliqlar faunasi haqidagi dastlabki tadqiqotlar 1868-1870 yillarda N. A. Seversov va A.A. Kushakevichlar tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, keyingi tadqiqotlar L. S. Berg (1948-1949); G. V. Nikolskiy (1933, 1940); F. A. Turdakov (1952, 1963); V. A. Maksunov (1968); G. K. Kamilov (1964, 1965); V. Salixov; A. Boltaboyev (1975); M. Muxamediyev (1985) va boshqalar tomonidan olib borilgan. Keyingi yillarda M.Sh.Nazarov(2021,2024); B.M.Sheraliyev(2021, 2024), M. Muqimov, M.Mirzaxalilov, D.Komilova, Y.Qayumova, G.G'ayratova, F.Umarovlar tomonidan o'rganilgan.

M.Sh.Nazarov tomonidan Farg'ona vodiysida tarqalgan endemik, mahalliy, iqlimlashtirilgan va tasodifan kelib qolgan baliq turlarining morfobiologik ko'rsatkichlari o'ranilgan.

B.M.Sheraliyev birinchi bo'lib Farg'ona vodiysi baliqlarini DNK barkodini usuli yordamida o'rgandi. Bu usul yordamida Farg'ona yalangbalig'i va So'x yalangbalig'i kashf etdi.

D.I.Komilova Qoradaryoning quyi oqimi ixtiofaunasini o'rgandi.

Y.Qayumova tarafidan Farg'ona vodiysi yanagbaliqlari o'rganildi.

G.G'ayratova Sirdaryoning Farg'ona vodysiga tegishli qismini o'rgandi.

F. Umarov Norin daryosi ixtiofaunasini o'rgangan.

Tadqiqotning material va uslubiyoti. Maqolani yozishda 2019-2024-yillarda yurtimizda va xorijiy jurnallarda nashr etilgan maqola va tezislardan foydalanildi. Maqola va tezislarni topishda Google scholar dasuridan foydandik. Shuningdek b.f.n B.M.Sheraliyevning Hujayra.uz saytidan ham foydalanildi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Yig'ilgan ma'lumotlardan foydalanib shuni aytishimiz mumkinki hozirgi kunda Qora daryoda 29 ta, Norin daryosida 24 ta, Shaxrixon soyda 8 ta baliq turi uchrashi qayt etilgan(1-jadval).

1-jadval

Farg'ona vodiysidagi ayrim daryo va soylarning ixtiofaunasi

| No | Baliq turi | Qora daryo | Norin | Shaxrixon soy |
|----|-----------------------------|------------|-------|---------------|
| 1 | Salmo trutta oxianus | - | + | - |
| | Oncorhinus mykiss | - | + | - |
| | Triplophysa strauchii | + | + | + |
| | Triplophysa labiata | - | + | - |
| | Carassius gibelio | + | + | + |
| | Cyprinus carpio | + | + | - |
| | Schizothorax eurystomus | + | + | + |
| | Hemiculter leucisculus | + | + | + |
| | Hypophthalmichthys molitrix | + | + | - |
| 0 | Opsariichthys bidens | + | + | - |
| 1 | Rhodeus ocellatus | + | + | + |
| 2 | Abbottina rivularis | + | + | - |
| 3 | Gobio lepidolaemus | + | + | + |

| | | | | |
|---|-------------------------------------|---|---|---|
| 4 | <i>Pseudorasbora parva</i> | + | + | + |
| 5 | <i>Alburnus chalcoides</i> | + | + | - |
| 6 | <i>Alburnus taeniatus</i> | + | + | - |
| 7 | <i>Petroleuciscus squaliusculus</i> | + | + | - |
| 8 | <i>Rutilus lacustris</i> | + | + | - |
| 9 | <i>Scardinius erythrophthalmus</i> | + | + | - |
| 0 | <i>Silurus glanis</i> | + | + | - |
| 1 | <i>Glyptosternon oschanini</i> | + | + | - |
| 2 | <i>Rhinogobius sp.</i> | + | + | - |
| 3 | <i>Gambusia holbrooki</i> | + | + | + |
| 4 | <i>Cottus spinulosus</i> | + | + | |
| 6 | <i>Sabanejewia aralensis</i> | + | - | - |
| 7 | <i>Iskandaria kuschakewitschi</i> | + | - | - |
| 8 | <i>Luciobarbus conocephalus</i> | + | - | - |
| 9 | <i>Ctenopharyngodon idella</i> | + | - | - |
| 0 | <i>Abramis brama</i> | + | - | - |
| 1 | <i>Pelecus cultratus</i> | + | - | - |
| 2 | <i>Channa argus</i> | + | - | - |
| 3 | <i>Esox Lucius</i> | + | - | - |
| 4 | <i>Micropercops cinctus</i> | - | - | + |

Turdakov F.A. Norin daryosining Uchqo'rg'ondan yuqori ya'ni Qirg'iziston hududidagi qismi bo'yicha jami 17 ta baliq turini, xususan jerex (*Aspiolucius esocinus*), Turkiston qumbalig'i (*Gobio lepidolaemus*), Turkiston mo'ylov balig'i (*Barbus capito conocephalus*), qora baliq (*Schizothorax intermedius*), Sarichelak marinkasi (*Schizothorax intermedius eurycephalus*), Severtsov osmani (*Diptychus sewerzowi*), Oshanin osmani (*Diptychus gymn. Oschanini*), *Nemacheilus conipterus*, kulrang yalangbaliq (*Nemacheilus dorsalis*), gambuziya (*Gambusia affinis*), oddiy laqqa (*Silurus glanis*), Turkiston laqqachasi (*Glyptosternum reticulatum*) va Turkiston toshbuqasi (*Cottus spinulosus*) kabi turlarni keltirib o'tgan. Ushbu tadqiqotchi Norin daryosining Farg'ona vodiysiga kirish oldidan Qorasuv irmog'ida qora baliq va Turkiston laqqachasi uchrashini, Farg'ona vodiysiga kirgach daryoning Uchqo'rg'on atroflarida Kushakevich yalangbaliq (*Nemacheilus kuschakewitschi*), qora baliq, Turkiston laqqachasi, qumbaliq, Buxoro yalangbaliq (*Nemacheilus amudarjensis*), chizikli tezsuzar (*Alburnoides taeniatus*) uchraganligini qayd etgan[4].

1963-yil F.A.Turdakov o'rganganidan so'ng 61 yil davomida Norin daryosi ixtiofaunasi ancha o'zgargan. Jerex (*Aspiolucius esocinus*), Turkiston mo'ylov balig'i (*Barbus capito conocephalus*), Severtsov osmani (*Diptychus sewerzowi*), Oshanin osmani (*Diptychus gymn. Oschanini*), *Nemacheilus conipterus*, kulrang yalangbaliq (*Nemacheilus dorsalis*), Kushakevich yalangbaliq (*Nemacheilus kuschakewitschi*), Buxoro yalangbaliq (*Nemacheilus amudarjensis*) kabi turlar so'nggi yillarda Norin daryosidan qayt etilmagan[25].

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, Norin va Qoradaryo o'zaro qo'shilgani uchun ixtiofaunasi nisbatan o'xshash. Lekin *Salmo trutta oxianus*, *Oncorhynchus mykiss*, *Triplophysa labiata* kabi turlar Qoradaryoda uchramaydi. *Sabanejewia aralensis*, *Iskandaria kuschakewitschi*, *Luciobarbus conocephalus*, *Ctenopharyngodon idella*, *Abramis brama*, *Pelecus cultratus*, *Channa argus*, *Esox Lucius*, *Micropercops cinctus* kabi turlar Norin daryosida uchramaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Балтабаев А. Ихтиофауна бассейна реки Карадарьи. Автореф. дис. ...канд. биол. наук. Ташкент, 1971. -42с.
2. Камилов Г.К. Рыбы водохранилищ Узбекистана. Ташкент: Изд-во "Фан", 1973.
3. Мухамедиев М.А. Рыбы Каркидонского водохранилища. Автореферат дис. на соискание кан. биол. наук. Л. 1985.
4. Юлдашов М.А., Камилов Б.Г. Результаты интродукций чужеродных видов рыб в водоемы Узбекистана//Научные труды Дальрыбвтуза. 2018. № 1 (т. 44). С.40-48.
5. Никольский Г.В. Рыбы Таджикистана. – Москва-Ленинград: Издательство Академии наук СССР, 1938. 48-бет.

6. Берг Л.С. Рыбы пресных вод СССР и сопредельных стран. Часть I. – Москва-Ленинград: Издательство Академии наук СССР, 1948. – 1-466 с.,
7. Берг Л.С. Рыбы пресных вод СССР и сопредельных стран. Часть II. – Москва-Ленинград: Издательство Академии наук СССР, 1949. – 467-925 с.,
8. Берг Л.С. Рыбы пресных вод СССР и сопредельных стран. Часть III. – Москва-Ленинград: Издательство Академии наук СССР, 1949. – 926-1382 с.
9. Турдаков Ф.А. Рыбы Киргизии. – Фрунзе: Издательство Академии наук Киргизской ССР, 1963. – 284 с.
10. M.Sh. Nazarov va boshqalar. [Farg'ona vodiysi baliqchilik hovuzlarida tarqalgan kumush tovonbaliq \(carassius gibelio\) ning morfobiologik ko'rsatkichlarini tahlili.](#) O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 2022/11/25. 686-691-betlar
11. Комилова Д. И. Қорадарё қўйи оқими ихтиофаунасининг таксономик ревизияси. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. November 2022. 996-1000-betlar
12. В. Салихов, Б. Г. Камилов. ИХТИОФАУНА БАССЕЙНА СРЕДНЕГО ТЕЧЕНИЯ СЫРДАРЬИ. 1995 г. ВОПРОСЫ ИХТИОЛОГИИ том 35 № 2 1995
13. Б. Шералиев. Систематический анализ ихтиофауны Ферганской долины. General biology. 80-84 с.
14. Y. Q. Qayumova , X. M. Komilova Turkiston qum balig'i gobio lepidolaemusning morfometrik xususiyatlarining qiyosiy tahlili FarDU ilmiy xabarlari. 2023-yil 3-son. 103-107-b
15. Sheraliyev B.M., Qayumova Y.Q., Komilova D.I. Farg'ona vodiysi suv havzalarida tarqalgan Cottus spinulosus Kessler, 1872 ning muhofazasiga oid // "XXI asrda Biologiyaning rivojlanish istiqbollari va ularda innovatsiyalarning ahamiyati" mavzusidagi Respublika ilmiy anjumani materiallari. Jizzax, 2021, 15-aprel, – B. 243-246
16. M. Nazarov, F. Umarov, Y. Qayumova. Норин дарёси айрим балиқ турларининг морфометрик кўрсаткичлари. O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2022, 76-78 b
17. Umarov, M. Nazarov, Norin daryosida uchrovchi Turkiston laqqachasi (glyptosternum oschanini) ning morfobiologik ko'rsatkichlari. Biologiyada zamonaviy tadqiqotlar: muammo va yechimlar" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. Termiz. 2022-yil.
18. F.A.Umarov, M.Sh.Nazarov Biologik tadqiqotlarda zamonaviy yondoshuvlarning dolzarb Norin daryosida uchrovchi turkiston oq chebagi (petroleuciscus squalisculus) ning ayrim morfobiologik ko'rsatkichlari masalalari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Farg'ona 2023 yil
19. B.M.Sheraliyev, Sh.A.Xalimov. Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumani zovurlari baliqlarining uzunlik va og'irlik munosabatlari. FarDU ilmiy xabarlari. 93-98-betlar. DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss3/a154

20. B. Sheraliev, Y. Kayumova, S. Allayarov, A. Rozimov, D. Komilova, D. Urmonova, Z. Peng Length–weight relations of 14 endemic and indigenous freshwater fish species (Actinopterygii) from the Aral Sea basin, Uzbekistan. *Acta Ichthyologica et Piscatoria* 52(4), 2022, 239–243. DOI 10.3897/aiep.52.89279.

21. G. G'ayratova, M. Nazarov, M. Muqimov [Sirdaryo yuqori oqimida uchrovchi uchlab balig'i \(opsariichthys bidens\) ning morfobiologik ko'rsatkichlari](#). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. 2023-yil. 7-son. 215-219-betlar.

[24. Турдаков Ф.А. Рыбы Киргизии. Фрунзе: Изд-во «АН Киргизии». 1963.](#)

25. F.A.Umarov, M.Sh.Nazarov Norin daryosi ixtiofaunasi taksonomiyasining zamonaviy holati. *Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi*. 2023-12/1. 190-193-betlar.